

Jamoatchilik asosida Ishchi guruh tomonidan hududlarda ijtimoiy ta'minot sohalari o'rganildi

Ijtimoiy soha ob'ektlarida olib borilayotgan ishlar, fuqarolarga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi M.Axmedova va tuman hokimi R.Shamuratovlar tibbiyot birlashmasiga tashrif buyurishib bemorlarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat holati, issiqlik rejimi, shuningdek homilador ayollarni sog'lomlashtirish masalasi bo'yicha tashkil qilingan ish faoliyati bilan tanishib tegishli topshiriqlarni berishdi.



Жамоатчилик асосида Ишчи гуруҳ аъзолари жойларга чиқиб ўрганишлар ўтказди

Қўнғирот туманига Қорақалпоғистон Республикаси Оила ва хотин қизлар қўмитаси раиси ўринбосари Г.Халмуратова, Қорақалпоғистон Республикаси Бандлик ва Меҳнат муносабатлари вазирлигининг ишсизларни ҳисобга олиш, ишга жойлаштириш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш шўъба мудирини Ш.Атаевлар аҳолига яратилган тиббий хизмат шароитлар, аҳолининг бандлигини таъминлаш соҳаси, айниқса “Аёллар дафтари”га киритилган аёлларга кўрсатилаётган ёрдамларни ўрганиб, соҳаларда учраётган муаммолар, уларнинг ечими учун кўрилаётган чоралар бўйича жойларга чиқиб ўрганишлар ўтказди.

Батафсил <https://kungrad.uz/2111.htm>





Toshkent shahar Yunusobod tumanida ijtimoiy sohalar o'rganildi va aholi bilan suhbatlar o'tkazildi

Yunusobod tuman hokimi o'rinbosari Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i D.Muxsimova, tuman moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari A.To'lyaganov va ishchi guruh a'zolari tomonidan tibbiy ob'yektlar holati va u erda davolanayotganlarga yaratilgan shart-sharoitlar ko'zdan kechirildi.

Jumladan: tuman 1-sonli SHK BK, ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Shahar bolalar uyi va "Nuroniylar" sanatoriyasi issiqlik tizimi va elektr energiyasini yetkazib berish holati o'rganildi.

Shuningdek, Yunusobod tuman hokimi o'rinbosari D.Muxsimova, jamoatchi faol J.Shermuxamedova va jamoatchilik a'zolari tomonidan tumandagi 313-sonli umumiy o'rtata'lim maktabi o'qituvchilari va Xasanboy nomli mahalla aholisi bilan ijtimoiy muammolarni aniqlash hamda bartaraf etish, o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar masalasida uchrashuv o'tkazildi.





Mutasaddi vakillar tomonidan hududlarda ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga yaratilgan shart-sharoitlar o'rganildi

Samarqand viloyat Ichki ishlar boshqarmasi qoshidagi voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida ijtimoiy himoyaga muhtoj voyaga yetmagan shaxslar tarbiyalanadi.

Hozirgi kunda markazda sakkiz nafar qizlar ham tarbiyalanmoqda.

Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova va vakillar ushbu markazda bo'lib, ular uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Qizlar bilan dildan suhbatlashdi. Ularni ota-onasi va yaqinlari bag'riga qaytarish uchun barcha choralar ko'rilishi ta'kidlandi



Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Z.Mahkamova, Toshkent viloyati Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Mirgaziyeva, O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i va boshqa mutasaddilar tomonidan Yangiyo'l tumanida xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini tashkil etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar o'rganildi.



1670-71 yillarda barpo etilgan Jo'ybori Kalon madrasasi Jo'ybori Kalon ayol-qizlar o'рта maxsus islom bilim yurtida o'рта ma'lumotli boshlang'ich arab tili murabbiysi, diniy ma'rifiy va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari maslahatchisi tayyorlaydi.

Ayni paytda u yerda respublikamizning turli viloyatlaridan 75 nafar talabalar tahsil olmoqda, Bosh vazir o'rinbosari Zulayho Mahkamova mazkur muassasada bo'lib, ta'lim dargohining mudarrisalari va talabalari bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlar, ma'rifatning taraqqiyotda tutgan o'rni xususida muloqot o'tkazdi.



O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Z.Maxkamova, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vaziligidan E.Muxiddinov, O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosari U.Abdullaeva va Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi o'rinbosari G.Xalmuratovalar ishtirokida "Ishga marhamat Mono Markazi" Qong'irov tumani filiali ich faoliyati o'rganildi.

Markazning sharoitlari bilan tanishar ekan, xotin-qizlar bandligi bugungi kunning eng dolzarb masalasi ekanligi ta'kidlarda va markazda kasbga o'qiyotgan xotin-qizlar bilan muloqot o'tkazildi.

